



Problems in translating specialized fire-technical vocabulary

Malokhat BADALBAYEVA¹

Academy of the Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

15 January 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

15 March 2025

Keywords:

fire-technical terminology,
translation of terms,
synonymy,
polysemy,
variability,
non-equivalent lexicon.

ABSTRACT

This article addresses topics such as the lexical analysis of certain fire-technical terms in English and Uzbek, theoretical challenges in translating terminology, and the methodology for using specialized fire-technical terms in both languages. Additionally, it highlights the primary difficulties in translating specialized fire-technical vocabulary, examines the variability in translating fire-technical terms according to levels of equivalence, and discusses translation techniques employed to achieve maximum correspondence between the original and translated texts.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1-pp9-15>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Maxsus yong'in-texnik leksikasini tarjima qilishdagi muammolar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

yong'in-texnik
terminologiya,
terminlarni tarjima qilish,
sinonimiya,
polisemiya,
variativlik,
ekvivalentsiz leksika.

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida ayrim yong'in-texnik terminlarning lug'aviy tadqiqi, terminlarni tarjima qilishning nazariy muammolari, ingliz va o'zbek tillarida maxsus yong'in-texnik terminlarining ishlatish metodikasi kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, maxsus yong'in-texnik leksikasini tarjima qilishning asosiy qiyinchiliklari ko'rsatilgan, ekvivalentlik darajalariga muvofiq, yong'in-texnik terminlarni tarjima qilish variativligi masalasi, shuningdek, asl va tarjima matnlarining maksimal darajada mosligiga erishish uchun ishlatiladigan tarjima usullari ko'rib chiqilgan.

¹ Associate Professor, Academy of the Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan.

Проблемы перевода специальной пожарно-технической терминологии

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

пожарно-техническая терминология, перевод терминов, синонимия, полисемия, вариативность, безэквивалентная лексика.

Данная статья посвящена анализу перевода терминологии в области пожарного дела с русского на английский и с английского на русский. В статье обозначены основные трудности перевода пожарно-технической лексики, рассматривается вопрос вариативности перевода пожарно-технических терминов в соответствии с уровнями эквивалентности, а также переводческие приемы, с помощью которых удаётся добиться максимального соответствия исходного и переводного текстов.

KIRISH

Yong'in-texnik matnni tarjima qilish – bu murakkab va sinchkovlik talab qiladigan ish bo'lib, asl materialning ma'nosini to'liq yetkazish uchun maxsus yondashuvni, "yong'in xavfsizligi" sohasida maxsus bilimlarni va tegishli terminologiyani bilishni talab qiladi. **Termin** (lotincha: *terminus* – "chegara", "had") – bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi.

Yong'in-texnik terminologiyasi har qanday milliy tilning texnik terminologik tizimlarining ajralmas qismidir. Turli ekstralingvistik va lingvistik omillar ta'siri ostida, yong'in xavfsizligi sohasidagi terminlar murakkab, dinamik ishlayotgan tizimni hosil qiladi. Tashqi omillar orasida yong'in xavfsizligi sohasini yoritib beradigan fanlarning rivoji bilan parallel ravishda sodir bo'ladigan ushbu soha leksikasining doimiy boyib borishi, shuningdek, ko'plab tadqiqotlarning fanlararo xarakteri va boshqa ilmiy bilimlar sohalaridan terminlarni o'zlashtirish zaruriyati tufayli yangi terminlar bilan boyishini sanab o'tish mumkin. Yetakchi lingvistik omillarga sinonimiya, omonimiya va polisemiya hodisalari kiradi, bular bir tomondan, yong'in-texnik terminologiyaning rivojlanishiga yordam bersa, boshqa tomondan – ma'nolarini va ularning ishlatilish sharoitlarini aniq chegaralash imkonini bermaydi, shu tariqa bu omillar terminlarning ma'nosini bir xil tushunishga va tarjimada ularning ma'nolarini to'g'ri yetkazishga to'sqinlik qiladi. So'zning noto'g'ri tanlangan ekvivalenti esa tarjima sifatiga putur yetishiga olib keladi va asl matn mazmunini yetkazishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

MATERIAL VA TADQIQOT USULLARI.

Yong'in-texnik leksik birliklarni tarjima qilishda uchraydigan qiyinchiliklardan biri tarjimadagi variativlik va standartlashtirishning yo'qligidir. Bir xil termin bir tadqiqot ishida teng ishlatilishi mumkin bo'lgan bir necha xil tarjima variantlariga ega bo'lishi, boshqa ishlarda esa terminlar uchun tushunchalar hajmi mos kelmasligi mumkin. Bunday nomuvofiqlik natijasida tarjima qilishda xatoliklar yuzaga kelishi mumkin.

Xatolar asl matnda ham uchrashi mumkin, chunki xorijiy tadqiqotchilar ham mavjud terminologik birliklarni o'z xohishlariga ko'ra ishlatishlari, o'z talqinlaridan kelib chiqib, so'zlarni taklif qilishlari mumkin, bu esa tarjimon uchun yanada murakkab terminologik chalkashlikni yaratadi.

Shunday qilib, ingliz-o'zbek lug'atlarda yong'in xavfsizligi bo'yicha 'fire' termini uchun "olov", "alanga", "yong'in" ma'nolari keltiriladi, 'combustion' termini uchun esa – "yonish", "kuyish", "yoqish" ma'nolari beriladi. Ko'rinib turibdiki, bu terminlarning

ma'nolari aniq chegaralangan. Ammo, AQSh Milliy yong'in muhofazasi assotsiatsiyasi (National Fire Protection Association, NFPA) tomonidan chiqarilgan terminologik glossariyda 'fire' termini uchun quyidagi ma'no qayd etilgan "u tez boradigan oksidlanish jarayoni bo'lib, turli intensivlikda yorug'lik va issiqlik ajralib chiqishi bilan yuzaga keladigan kimyoviy reaksiyadir" ("a rapid oxidation process, which is a chemical reaction resulting in the evolution of light and heat in varying intensities") [1; 434]. Xuddi shu glossariyda 'combustion' termini "u tez boradigan kimyoviy oksidlanish jarayoni sifatida tushuntiriladi, cho'g' yoki alanga shaklida odatda issiqlik va yorug'lik ajratib hosil bo'ladi" ("a chemical process of oxidation that occurs at a rate fast enough to produce heat and usually light in the form of either a glow or flame") [5; 123].

Ta'riflash tahlili shuni ko'rsatadiki, "fire" va "combustion" kabi asosiy termin tushunchalari ko'p jihatdan bir-biriga mos keladi. Ushbu terminlar ingliz tilidagi yong'in-texnik matnlarda ko'pincha sinonim sifatida ishlatiladi, ammo aslida ular sinonim so'zlar emas. Buni Britaniya standartlash instituti tomonidan nashr etilgan lug'atda keltirilgan ta'riflar orqali ham ko'rish mumkin: "fire" leksemasi lug'atda "combustion" termini orqali verbalizatsiya qilingan, bu esa yonish jarayonining bir turi sifatida torroq tushunchani ifodalaydi [6; 72]. Bunday nomuvofiq sinonimlarning mazmunini yetkazishda texnik terminlarning tarjima kontekstini hisobga olish zarur.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI.

Yong'in-texnik matnlar bilan ishlashda ikkinchi tarjima muammosini til birliklarining birikish xususiyatlari tashkil etadi. V.N. Komissarovning ekvivalentlik nazariyasiga ko'ra, asl va tarjima matni o'rtasidagi maksimal moslik beshta ekvivalentlik darajasining mos kelishi hisobiga erishiladi, ammo faqat shu darajalardan birida mos keladigan asl va tarjima qilingan matngina tillararo kommunikatsiyani ta'minlaydi [3; 12].

Aynan yong'in-texnik matni bilan ishlaydigan tarjimon uchun dolzarb bo'lgan masalalardan biri bu ekvivalentga ega bo'lmagan leksikani tarjima qilish muammosidir. Bunday so'zlar tarjima tilida to'g'ridan-to'g'ri mos keladigan tushuncha, hodisa yoki mahalliy realiyalarga ega emas, ular orasiga geografik nomlar, muassasa va tashkilot nomlari kiradi.

Bunday leksikani tarjima qilishda transliteratsiya usulidan samarali foydalanish mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi FVV Fuqaro muhofazasi institutining ingliz tiliga tarjimasini ko'rib chiqamiz. ***Institute of Civil Protection of the Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan*** – asl nom bilan til belgilari darajasida to'liq mos keladi, so'zma-so'z tarjima qilingan, so'z tartibi saqlanib qolingani, asl va tarjima matni bir-biriga maksimal darajada yaqin. Biroq, tasvirlash usuli darajasida tarjima ingliz tili uchun tipik konstruksiyalarga to'liq mos kelmaydi, ko'rib chiqish uchun taklif etilgan tarjima variantida "civil protection" leksik birligi internet tarmog'i o'zbekcha vikipediya saytida "Fuqaro mudofaasi" leksik birligining tarjimasini sifatida ko'rsatilgan va izohlangan. Bundan boshqa "of" predlogi ham keragidan ortiqcha miqdorda mavjud. ***Civil Defense Institute of MES of Uzbekistan*** tarjima varianti, bizning fikrimizcha, so'z tartibini o'zgartirish tufayli nisbatan muvaffaqiyatliroq hisoblanadi, bu "of" ning ortiqchaligini bartaraf etadi, shu bilan birga ma'noni buzmasdan tushunchalar umumiyligini saqlaydi.

"Yong'in o'chirgich" va *extinguisher / fire extinguisher* so'zlari o'rtasida muvofiqlik mavjud. Semantik jihatdan ma'noni yetkazish uchun "extinguisher" so'ziga "fire" so'zini qo'shish talab qilinmaydi, jumladan, ingliz tilida yong'in o'chirgich turlari (suv, ko'pikli, kukunli va boshqalar) tegishli atributiv ot qo'shish orqali hosil qilinadi: *water (type) extinguisher, foam (type) extinguisher, dry powder extinguisher* kabi so'z birikmalariga

“fire” soʻzini qoʻshilishi asossiz takrorlashga olib kelishi mumkin, shuning uchun yongʻin oʻchirgich turiga ingliz tilida “fire” soʻzini qoʻshishdan qochish maqsadga muvofiq. Ammo oʻzbek tilida baʼzan “vositali” va albatta ‘yongʻin’ soʻzlarini qoʻshib tarjima qilish toʻgʻridir. Jumladan, “Suv vositali yongʻin oʻchirgich”, “Koʻpik vositali yongʻin oʻchirgich”, “kukunli yongʻin oʻchirgich” kabi.

Yongʻin-texnik terminlarni tarjima qilishda xalqaro leksika uchun toʻgʻri maʼnoni tanlash – tarjimon uchun yana bir vazifadir. Masalan, “spray”, “operator”, “(fire) department”, “suppression” kabi xalqaro soʻzlar mahalliy yongʻin-texnik terminologiya bilan tanish boʻlmagan tarjimon uchun muammo tugʻdirishi mumkin. “Water spray” soʻz birikmasi yongʻin-texnik matnlarni tarjima qilishda “purkab beriladigan suv oqimi” deb tarjima qilinadi, “suv spreysi” emas, garchi, bunday tarjima varianti faqat ixtisoslashgan lugʻatlarda uchrasa-da. Bu holda, biz kommunikatsiya maqsadiga koʻra ekvivalentlikning beshinchi darajasiga muvofiq tarjima qilishimiz kerak. Shunga oʻxshash vaziyat “blanket” soʻzini tarjima qilishda ham yuzaga keladi, bu soʻz umumiy ingliz tilida “choyshab/qoplama/himoya qatlami” maʼnolarini anglatadi. Ammo “Firefighters used a blanket to extinguish the fire” jumlasida koʻrib chiqilayotgan soʻz Oʻzbekistonda qabul qilingan terminologiyaga muvofiq – “(yongʻinga qarshi) kigiz” deb tarjima qilinadi. “Yongʻin oʻchiruvchilar olovni choyshab yordamida oʻchirishdi” varianti tegishli kontekst mavjud boʻlganda nazariy jihatdan mumkin, ammo kontekstsiz bunday tarjima notoʻgʻri boʻladi [5;132].

“Operator” (masalan, ‘hose operator’), “department” (masalan, ‘fire department’), “suppression” (masalan, ‘fire suppression’) ham kontekst va umumlashtirish usuliga muvofiq tarjima qilinadi, ammo “stvol tutuvchi”/ “yongʻin oʻchiruvchi”, “yongʻin oʻchirish qismi”, “shlang operatori”, “yongʻin oʻchirish departamenti” va “olovni bostirish” tarzida emas [2; 152].

Yongʻin xavfsizligi terminlarining polisemiyasi va sinonimiyasi tarjima nuqtai nazaridan jiddiy muammo hisoblanadi. Misol sifatida “hose” soʻzining tarjima variantlarini koʻrib chiqamiz. “Yeng” maʼnosi allaqachon ayrim tilshunoslik lugʻatlariga kiritib qoʻyilgan, ammo “hose” soʻzi bilan yongʻinni oʻchirish *yeng*idan boshqa asbob yoki apparatlardagi *shlang/trubka* maʼnolari koʻproq uchraydi. Masalan, “They presented a new type of hose at the exhibition” jumlasida ‘hose’ termini “yeng” maʼnosida tarjima qilinadi. Ayni paytda, “The breathing apparatus includes a mask with a hose connected to a cylinder filled with breathable air” jumlasining kontekstida “hose” termini yongʻin oʻchiruvchining niqobini havo balloni bilan bogʻlovchi maxsus trubkani anglatadi.

Xuddi shuningdek, “Because of terrible earthquake the bridge collapsed” jumlasining kontekstida “collapse” termini koʻprikning *qulab tushishini* anglatadi. Shunday qilib, texnik matnni tarjima qilish ham kontekst bilan cheklanmasligi mumkin emas. Shuni boshqa jumla kontekstida boshqa maʼnoda kelishini koʻrish mumkin. Jumladan, “Because of high internal pressure the hose can be collapsed”, tarjimasi “Yuqori ichki bosim tufayli yeng bukilib qolishi mumkin”. Mazkur jumla kontekstida esa “collapse” soʻzi “bukilib qolmoq” maʼnosida qoʻllanganligini guvohi boʻldik [3; 38].

Tarjimonning yongʻin fani sohasida maxsus bilimga ega boʻlishi ham zarur omillardan hisoblanadi. “Yongʻin (oʻchirish) avtomobili” termini ingliz tilida bir nechta ekvivalentga ega – “fire appliance” / “fire truck” / “fire engine” kabi. Koʻpgina tarjimalarda bu soʻz birikmalari sinonim sifatida ishlatiladi, ammo amalda ular yongʻin avtomobillarini xilma-xilligini belgilaydi. “Fire engine” – yongʻin (oʻchirish) avtomobili boʻlib, jihozlar,

asboblari tashish uchun xizmat qiladi, shuningdek suv manbaidan suvni so'rib oladigan avtonasos bilan jihozlangan (avtonasos) avtoulov turi, "fire truck" esa – bu yig'iladigan narvonli avtomobil – avtonarvon yoki bo'g'imli ko'targich. Yong'in avtomobillarining bu turlari turli xil funksiyalarni bajaradi va ularni doimo "yong'in o'chirish avtomobili" termini bilan tarjima qilish unchalik to'g'ri emas. "Fire appliance"ni tarjima qilishda ham "appliance" so'zining ko'p ma'noliligi tufayli qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu termin uchun yong'in-texnik lug'atlarda quyidagi ma'nolar qayd etilgan: "yong'in (o'chirish) avtomobili" va "yong'in o'chirish anjomlari", lekin tarjima tanlovi, albatta, kontekst bilan cheklangan.

Maxsus bilimlar mavjud bo'lmaganda "jet" so'zi, masalan, "water jet" so'z birikmasi ham qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Yong'in o'chirishda, odatda, ikkita oqim turi qo'llaniladi – zichlashgan va purkab beriladigan. Ingliz-o'zbek lug'atiga murojaat qilishda, bu so'z uchun yetarli fe'l mosligi topish mumkin – "purkamoq, yig'ma oqim bilan urmoq", ammo "It's better to use water jets to extinguish class A fires" o'zbekcha tarjima "A" sinf yong'inlarni o'chirishda "A dastak"li suvdan fydalangan afzalroq" jumlasida ko'rsatilgan "water jets"ning ma'nosi yuqoridagi "jet" so'zi ma'nolariga ekvivalent emasligini ko'rish mumkin.

Matnning asl mazmunini boshqa tilga tarjimasini yetarlicha aniq ifodalash uchun leksik qo'shimcha usulidan foydalanish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

XULOSALAR

Biz ushbu matnda "yong'in xavfsizligi" sohasiga oid terminlarni inglizcha-o'zbekcha va o'zbekcha-inglizcha tarjimalarida yuzaga keladigan muammolarning faqat ayrimlarinigina ko'rib chiqdik. Keltirilgan misollar yong'in-texnik yo'nalishdagi matnlarni tarjima qilishda uchrashi mumkin bo'lgan barcha murakkabliklarni to'liq qamrab olmasada, ularning mohiyatini aniq namoyon etadi. Bu esa terminlarni bir tildan boshqasiga tarjima qilish jarayoni mazmunni va ifodani saqlagan holda eng mos ma'noni izlab topishni talab qiladigan murakkab jarayon ekanini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Badalbeyeve M. Translation features of emergency terms in English and Uzbek: a comparative analysis // "Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari" ilmiy-metodik elektron jurnal. 2024. 4-jild, 9-maxsus son (noyabr). – B. 434-438.
2. Badalbeyeve M. Usage of the Emergency terms (Lexis) in the Context (in the Different Texts) // "International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management". Multidiciplinary, Open Access, Peer-Reviewed Journal. Volume 3, Issue 6. 2024. – P. 152-160.
3. Комиссаров В.Н. Лингвистика перевода. – М.: Книжный дом «Либроком», 2009. – 176 с.
4. Куприн Г.Н., Новобытов А.А., Чамеев А.А. Англо-русский пожарно-технический словарь. М.: Военное издательство Министерства Обороны СССР, 1980. – 343 с.
5. Мешалкин Е.А., Палей С.М., Васильев М.С., Мордкович Г.В. Иллюстрированный словарь по пожарной безопасности (англо-немецко-французко-русский): около 8000 терминов. – М.: ВНИИПО МВД России, 1999. – 450 с.
6. Словарь Cambridge Dictionary. [электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://dictionary.cambridge.org/ru/>
7. NFPA Glossary of Terms. 2019 Edition. National Fire Protection Association, 2019.